

Maroqli dam – mehnatga hamdam

Institut talabalarini bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari, maroqli dam olishlari hamda iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularga mahoratlarini yanada rivojlantirishlari uchun imkoniyat va sharoitlar yaratib berish maqsadida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar tomonidan barcha namoyishlar jonli ijro asosida "Fakultet konsert shou"si uyushtirildi.

Konsertda "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar o'zlarining mahoratlari bilan jonli qo'shiq aytish, turli musiqiy asboblarni chalish va o'zlarining hajviy, yumoristik chiqishlari bilan barchada qiziqish uyg'otdi.

Konsert juda qiziqarli tarzda o'tkazildi va barcha fakultetning talabalari ko'tarinki ruhda tomosha qilib, maroqli dam olishdi.



QXM fakulteti ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari I.Raximov axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov